



UDK: 17:34(575.1)

Jobirjon SAIMMURODOV,

Tadqiqotchisi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: j_saitmurodov@renessans-edu.uz, ORCID:0009-0008-1066-0973

Renessans universiteti professori, f.f.d Musayev Odil Raxmatovich taqrizi ostida

PHILOSOPHICAL AND LEGAL APPROACHES TO THE STUDY OF THE RELATIONSHIP BETWEEN MORALITY AND LAW IN UZBEKISTAN

Annotation

This article systematizes philosophical, ethical, and legal studies on the relationship between morality and law in Uzbekistan and analyzes their common and distinctive aspects. It examines the extent to which the expression of moral values in legal norms and the internalization of legal requirements in individual consciousness have been developed within a coherent philosophical and legal framework.

Keywords: morality, law, the relationship between morality and law, justice, value, legal consciousness, legal culture, philosophical and legal approach, normative system.

ФИЛОСОФСКО-ПРАВОВЫЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ВЗАИМОСВЯЗИ МОРАЛИ И ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье систематизируются философские, этические и юридические исследования, посвященные взаимосвязи морали и права в Узбекистане, а также анализируются их общие и отличительные аспекты. Рассматривается степень разработанности в рамках целостной философско-правовой концепции процессов выражения нравственных ценностей в правовых нормах и закрепления правовых требований в сознании личности.

Ключевые слова: мораль, право, взаимосвязь морали и права, справедливость, ценность, правосознание, правовая культура, философско-правовой подход, нормативная система.

O'ZBEKISTONDA AXLOQ VA HUQUQ MUNOSABATINI O'RGANISHNING FALSAFIY-HUQUQIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda axloq va huquq munosabatiga oid falsafa, etika va huquqshunoslikka oid tadqiqotlar tizimlashtirilib, ularning umumiy hamda farqli jihatlarini tahlil qilinadi. Axloqiy qadriyatlarning huquqiy normalarda ifodalanishi va huquqiy talablarning shaxs ongida mustahkamlanishi yaxlit falsafiy-huquqiy konsepsiya doirasida qanday darajada ishlab chiqilgani o'rganiladi.

Kalit so'zlar: axloq, huquq, axloq va huquq munosabati, adolat, qadriyat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, falsafiy-huquqiy yondashuv, normativ tizim.

Kirish. Axloq va huquq kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni tartibga soluvchi, funksional vazifalari jihatidan uyg'un bo'lgan, lekin ta'sir mexanizmlariga ko'ra bir-biridan farqlanuvchi normativ tizimlardir. Axloq shaxsning vijdoni, e'tiqodi, burch va mas'uliyat hissi, shuningdek, jamoatchilik bahosi orqali xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Huquq esa rasman belgilangan normalar, vakolatli institutlar, protseduralar va davlat kafolatlari vositasida ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtiradi. Shu bois ularni bir-biriga aynan tenglashtirish ham, mutlaqo mustaqil hodisalar sifatida talqin qilish ham mazkur munosabatning murakkab tabiatini to'liq ochib bermaydi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohtlarning bosh maqsadi inson, uning hayoti, huquq va erkinliklari, qadr-qimmati, ehtiyoj va manfaatlariga qaratilgan [1]. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada insonning sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi [2] huquqiy normalarning faqat majburiy kuchga emas, balki muayyan axloqiy va aksiologik asoslarga ham tayanishini ko'rsatadi. Bu holat axloq va huquq munosabatini faqat nazariy jihatdan emas, balki huquqni yaratish, uni amaliyotga tatbiq etish, huquqni qo'llash, huquqiy tarbiya, fuqarolik madaniyati hamda jamiyatdagi ishonchni mustahkamlash bilan bog'liq

muammo sifatida o'rganish zaruratini vujudga keltiradi. O'zbekistonda mazkur muammo falsafa, etika, aksiologiya, huquqshunoslik hamda maxsus yuridik fanlar doirasida turli jihatlardan tadqiq etilgan. Izlanishlar turli fanlar kesimida amalga oshirilgani bois, natijalar huquqiy-falsafiy jihatdan aniq holda tizimlashtirilmagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuni o'rganishda axloq va huquq munosabatining tarixiy, falsafiy hamda yuridik jihatlarini yorituvchi ilmiy manbalarga tayanildi. Tarixiy-falsafiy yo'nalishda I.Mo'minov, M.Xayrullayev, H.Boboyev, Z.Muqimov, H.Muhamedov, M.Hamidovlarning siyosiy-huquqiy tafakkur, tarixiy huquq manbalari va Sharq mutafakkirlari merosiga oid tadqiqotlari muhim o'rin tutadi.

Y.Jumaboyev, E.Yusupov, H.Aliqulov, A.Sher, G.Navro'zova, L.Muxamedjonova, M.Raximova, B.Ochilova, A.Samadov, G.Nosirxo'jayeva, B.Namozov, X.Yo'lovshlarning etikaga oid izlanishlarida axloqning mohiyati, burch, vijdon, mas'uliyat, erkinlik va shaxsiy tanlov masalalari tahlil qilingan,

J.Tulenov, Q.Nazarov, M.Nurmatova, H.Shayxova, L.Muxamedjonova, X.To'xtayev, O.G'aybullayevlarning

aksiologik tadqiqotlarida esa ularning qadriyat, adolat va mas'uliyat bilan bog'liqligi o'rganilgan.

B.To'ychiyev, F.Musayev, Z.Islomov, X.Odilqoriyev, F.Muhtidinov, M.Axmedshayeva, M.Kaxarova, M.Botirov, B.To'rayev, Sh.Saydullayev, N.Javshiyevlarning huquq falsafasi va huquqning umumnazariy masalalariga bag'ishlangan ishlarida huquqning mohiyati adolat va erkinlik bilan aloqasi, huquqiy qadriyatlar, huquqiy xulq-atvor va javobgarlik masalalari, shuningdek, U.Tadjixanov, A.Saidov, M.Najimov, X.Mamatov, Y.Sadiqova, O.Nasriddinova va boshqalarning izlanishlarida insonlarda huquqiy ong va madaniyatning vujudga kelishi, qonunlarga hurmat va fuqarolik mas'uliyatini paydo qilishi va buning jamiyat hayotidagi ahamiyati ochib berilgan. Axloq va huquq munosabatini bevosita tahlil bugungi tadqiqotlarda E.G'apparov, G.Abdusattorova va D.Ibroximovaning izlanishlari alohida yo'nalishni tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola fanlararo tarixiy va qiyosiy-konseptual tahlil asosida yoritildi. Tadqiqot manbalarini O'zbekiston olimlarining falsafa tarixi, axloqshunoslik, aksiologiya, huquqshunoslikka oid darsliklari, monografiyalari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga daxldor dissertatsiyalar tashkil etdi. Axloqiy va huquqiy me'yorlarning dastlabki sinkretik shakllardan nisbatan mustaqil normativ tizimlarga ajralib borishi hamda bu jarayonning O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida qanday talqin qilinganini aniqlash maqsadida tarixiyretrospektiv metod qo'llanildi. Olimlarning axloq, huquq, adolat, qadriyat, mas'uliyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalariga doir qarashlari qiyosiy-konseptual tahlil orqali solishtirildi. Kontent-tahlil orqali ilmiy ishlarni ularning mavzusi va asosiy tushunchalariga ko'ra guruhlash, aksiologik yondashuv huquqning inson qadri, erkinlik va adolat bilan aloqasini aniqlash, huquqiy-dogmatik usul esa huquqiy normalarning umummajburiylik, institutsional kafolatlari va sanksiya mexanizmlarini tahlil qilishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Turli manbalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida O'zbekistonda axloq va huquq munosabatiga oid tadqiqotlarni shartli ravishda besh yo'nalishga ajratish mumkin. Bular: tarixiy-falsafiy, aksiologik-axloqiy, normativ-integrativ, huquqiy-madaniy va amaliy-yuridik. Ushbu tasniflash olimlarning o'zlari tomonidan aynan shu ko'rinishda foydalanilganini anglatmaydi. Balki, tadqiqotning predmeti, tayangan kategoriyalari va ilgari surgan nazariy xulosalaridagi ustuvorliklarni umumlashtirish asosida ishlab chiqildi.

Tarixiy-falsafiy yondashuv axloq va huquq munosabatining dastlabki ko'rinishlarini qadimgi hamda o'rta asr normativ merosi orqali tushuntiradi. Bu yo'nalishda I.Mo'minov, M.Xayrullayev, H.Boboyev, Z.Muqimov, H.Muhamedov va M.Hamidova kabi olimlarning tarixiy-falsafiy hamda siyosiy-huquqiy merosga oid tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Ushbu izlanishlarda qadimgi jamiyatlardagi diniy e'tiqod, urf-odat, axloqiy talab va huquqiy majburiyatlar hali mustaqil normativ tizimlarga to'liq ajralmagan holda amal qilgani ko'rsatiladi. Abdulla Sher qadimgi Sharq axloqiy tafakkurini tahlil qilar ekan, "Avesto"dagi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal tamoyillari insonning ichki niyati bilan tashqi xatti-harakatini bir butun holda baholashini ko'rsatadi [3]. Ibrohim Mo'minovning ilmiy va tashkiliy faoliyati O'zbekistonda tarixiy-falsafiy hamda huquqiy tadqiqotlarning institutsional asoslari shakllanishida muhim o'rin tutadi. H.Qahhorovning tadqiqotida 1958-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi bazasida Falsafa va huquq instituti tashkil etilgani hamda I.Mo'minov unga boshchilik qilgani qayd etiladi [6]. Ushbu ilmiy muhitda M.Xayrullayev Forobiy merosidagi fazilat, oqilona boshqaruv, adolat va umumiy saodat masalalarini tizimli ravishda o'rganib, Sharq falsafiy merosining zamonaviy ilmiy talqiniga hissa qo'shdi.

Tarixiy-falsafiy yondashuvning ilmiy ahamiyati axloq va huquqni bugungi zamonaviy institutlar mahsuli sifatida emas, balki uzoq tarixiy rivojlanishda shakllangan normativ tajriba sifatida tushuntirishidir.

Aksiologik-axloqiy yondashuvda axloq va huquq o'rtasidagi munosabat adolat, erkinlik, tenglik, inson qadri, burch, mas'uliyat va javobgarlik kategoriyalari orqali o'rganiladi. Ushbu

yo'nalishda E.Yusupov, A.Sher, Q.Nazarov, B.Ochilova, L.Muhamedjonova, M.Rahimova, G.Navro'zova va boshqa tadqiqotchilarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. E.Yusupov axloqni insonlarning "o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yorlari sifatida ta'riflaydi [14]. Ko'rinnomdagi, axloq shaxsga tashqaridan qo'yilgan ta'riqdan ko'ra, uning o'z xulqini ichki mezonlar asosida boshqarish qobiliyati bilan bog'liqlidir. Abdulla Sher "axloqni jamoatchilik asosidagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan axloq deb atash mumkin" [3] ligini aytadi. Unga ko'ra, axloq va huquq o'rtasidagi farq faqat ularning mazmunida emas, balki normaning amal qilishi va ta'minlanish mexanizmidan ham namoyon bo'ladi. Qiyom Nazarov huquqiy va axloqiy qadriyatlarni umumiy aksiologik tizimning o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari sifatida tahlil qiladi. Shuningdek, inson qadr-qimmat, erkinlik, tenglik va adolat axloqiy baholash mezonlari bo'lishi bilan birga, huquqiy tartibning mazmunini ham belgilaydi [4]. Bu yondashuvning kuchli tomoni huquqni faqat buyruq yoki sanksiya vositasi sifatida emas, muayyan qadriyatlarni himoya qiluvchi normativ tizim sifatida talqin qilinishidir. Biroq axloqiy mezonlar tarixiy va ijtimoiy jihatdan o'zgaruvchan [15] bo'lgani sababli, huquqning axloqiy bahosi inson qadrqimmat, tenglik, mutanosiblik va zarar yetkazmaslik kabi asoslangan mezonlarga tayanishi zarur.

Normativ-integrativ yondashuvda huquqning mohiyati, belgilari va ijtimoiy vazifalariga doir izlanishlar B.To'ychiyev, F.Musayev, Z.Islomov, X.Odilqoriyev, F.Muhtidinov, M.Ahmedshayeva, M.Kaxarova, B.To'rayev, Sh.Saydullayev, N.Javshiyev va boshqa olimlarning ishlarida yoritilgan. Ushbu yo'nalishda X.Odilqoriyevning tadqiqotlari huquqning normativ xususiyatlarini uning falsafiy va aksiologik mazmuni bilan birgalikda tushuntirishi bilan alohida ajralib turadi. U mustaqillikdacha huquq ko'proq sinfiy hukmronlik vositasi sifatida talqin qilinganini, zamonaviy sharoitda esa huquqqa erkinlik, adolatparvarlik, tenglik va ijtimoiy kelishuv vositasi sifatida yondashilayotganini qayd etadi [5, 15–16-b.]. Bu qarash O'zbekiston yuridik adabiyotlarida huquqning normativ-pozitivistik talqini saqlagan holda, uning aksiologik va integrativ mazmuniga e'tibor kuchayganini ko'rsatadi.

N.Javshiyevning "Hozirgi kunda huquqni tushunish muammolari" [8] hamda Sh.Yakubovning "O'zbekiston huquqiy tizimida huquqiy qadriyat va tamoyillarning shakllanishi" [9] mavzularidagi dissertatsiyalari huquq tushunchasi, huquqiy qadriyat va tamoyillar masalalari O'zbekistonda maxsus tadqiqot yo'nalishiga aylanganini ko'rsatadi.

Ushbu yondashuv doirasidagi izlanishlarni uch o'zaro bog'liq darajada umumlashtirish mumkin. Nazariy-aksiologik daraja huquqning mohiyati, adolat, erkinlik va tabiiy hamda pozitiv huquq munosabatini qamrab oladi. Normativinstitutsional darajada qadriyatlarining huquqiy norma va institutlarda mustahkamlanishi o'rganiladi. Shaxsiy-madaniy daraja esa huquqiy normaning shaxs tomonidan anglanishi, qabul qilinishi va ongli xulqqa aylanishini ifodalaydi.

Huquqiy-madaniy yondashuv axloq va huquq o'rtasidagi munosabatni huquqiy ong, huquqiy madaniyat, qonunga hurmat va huquqqa mos xulq-atvor orqali tushuntiradi. Ushbu yo'nalishda U.Tadjixanov, A.Saidov, M.Najimov, X.Mamatov, O.Nasriddinova, Y.Sadiqova va boshqa tadqiqotchilarning ishlari muhim o'rin egallaydi. X.Mamatovning tadqiqot mavzusi bevosita huquqiy madaniyat va fuqarolik jamiyati shakllanishi [10] muammolariga, O.Nasriddinovaniki yoshlar huquqiy madaniyatining fuqarolik jamiyati bilan aloqasi [11] ga, Y.Sadiqovanning izlanishlari esa demokratik qadriyatlarining huquqiy ong shakllanishi ta'siriga [12] qaratilgan Ushbu tadqiqotlar O'zbekistonda huquqiy ong va huquqiy madaniyat mavzularining mustaqil yo'nalish sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

O'rganilgan manbalarni birlashtirish natijasida shu namoyon bo'ladiki, axloq va huquq o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalashda huquqiy ong va huquqiy madaniyat muhim rol o'ynaydi. Huquqiy madaniyat qonun mazmunini bilish bilangina cheklanmaydi. U shaxsning normani adolatli va zarur deb qabul

qilishi, o'z huquqlarini boshqalarning huquqlari bilan muvozanatlashitira olishi hamda huquqqa muvofiq xulqni ongli ravishda tanlashini ham qamrab oladi.

Amaliy-yuridik yondashuv orqali axloqiy talablarning muayyan huquq institutlari va javobgarlik mexanizmlarida qanday ifodalanishini o'rganadi. Ushbu yo'nalishda Sh.G'aniyev, X.Abdurahmonov, G.Inamjanova, Sh.Yo'ldoshev, E.G'apparov, G.Abdusattorova va D.Ibroximovanning ishlari mavzuga bevosita yoki bilvosita aloqador hisoblanadi. Sh.G'aniyevning "Axloqqa qarshi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiyasi axloqiy jihatdan nomaqbul qilmishning qaysi sharoitda huquqiy taqiy va ma'muriy javobgarlik obyektiga aylanishi muammosiga bag'ishlangan [13]. Mazkur tadqiqot yo'nalishi axloqiy nomaqbullik bilan huquqiy

zarar o'rtasidagi chegarani aniq belgilash zaruratini yuzaga chiqaradi. Har qanday axloqiy nuqsonning yuridik javobgarlik predmetiga aylantirilishi huquqning tartibga solish doirasini asossiz kengaytirishi mumkin. E.G'apparov formal qonuniylik bilan axloqiy adolat o'rtasidagi ziddiyatni ijtimoiy ishonch muammosi bilan bog'laydi [7, 381–386-b.]. Mazkur yondashuv dolzarb bo'lsa-da, huquqning axloqqa zid bo'lishi subyektiv baho asosida emas, inson qadri, tenglik, mutanosiblik va zarar bermaslik kabi asoslangan indikatorlar orqali aniqlanishi lozim.

Amaliy-yuridik tadqiqotlardan kelib chiqadigan umumiy xulosa shuki, huquq jamiyat axloqining to'liq nusxasi emas. U ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ayrim axloqiy talablarni tanlab, ularni umummajburiy norma va institut shaklida mustahkamlaydi.

O'zbekistonda axloq va huquq munosabatini o'rganishning asosiy yo'nalishlari

1-jadval

Yo'nalish	Asosiy vakillar	Asosiy tushunchalar	Ilmiy hissasi
Tarixiy-falsafiy	I. Mo'minov, M.Xayrullayev, H.Boboyev, Z.Muqimov	fazilat, adolat, burch, boshqaruv	axloq va huquqning tarixiy ildizlari hamda normativ vorisligini ochib beradi
Aksiologik-axloqiy	E.Yusupov, A.Sher, Q.Nazarov	qadr-qimmat, erkinlik, tenglik, mas'uliyat	huquqning aksiologik mazmuni va axloqiy mezonlarini ko'rsatadi
Normativ-integrativ	X.Odilqoriyev, N.Javshiyev, Sh.Yakubov	norma, adolat, legitimlik, tamoyil	huquqning formal belgilari bilan qadriyaviy mazmunini bog'laydi
Huquqiy-madaniy	X.Mamatov, O.Nasriddinova, Y.Sodiqova	huquqiy ong, ishonch, ichki e'tiqod, ongli xulq	huquqiy normaning shaxs ongida mustahkamlanishini tushuntiradi
Amaliy-yuridik	Sh.G'aniyev, E.G'apparov va boshqalar	javobgarlik, zarar, burch, g'amxo'rlik	axloqiy talablarning huquqiy institutlarda namoyon bo'lishini ochib beradi

Manba: muallif tomonidan o'rganilgan falsafiy, huquqiy va bibliografik manbalarni qiyosiy tahlil qilish asosida tuzilgan.

Xulosa va takliflar O'rganishlar natijasiga ko'ra, O'zbekistonda axloq va huquq munosabatiga oid tadqiqotlar falsafa, axloqshunoslik, aksiologiya, huquqshunoslik hamda maxsus yuridik fanlar doirasida shakllanganini ko'rsatdi. Shu sababli mazkur sohani o'rganilmagan yo'nalish sifatida emas, balki ilmiy natijalari turli fanlarda tarqoq holda rivojlangan va yagona falsafiy-huquqiy tizimga to'liq birlashtirilmagan fanlararo tadqiqot maydoni sifatida baholash maqsadga muvofiq. Mavzuni tadqiq qilish natijasida tarixiy-falsafiy, aksiologik-axloqiy, normative-integrativ, huquqiy-madaniy va amaliy-yuridik yo'nalishlar ajratildi.

I.Mo'minov, M.Xayrullayev H.Boboyev va Z.Muqimovlar tarixiy-falsafiy meros hamda ilmiy maktablarning shakllanishiga, E.Yusupov, A.Sher va Q.Nazarov axloqiy hamda aksiologik talqinlarning rivojiga, X.Odilqoriyev va boshqalar esa huquqning normativ belgilarini uning falsafiy va aksiologik mazmuni bilan bog'lashga hissa qo'shgan. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatga

oid ishlar mazkur aloqaning shaxs, huquqiy xulq va fuqarolik jamiyati darajasidagi ko'rinishlarini yoritgan.

Aniqlangan ma'lumotlar axloq va huquq munosabatini izohlashda asosiy nazariy bo'shliqni ko'rsatdi. Ushbu izlanishlarda axloqiy qadriyatlarining huquqiy norma mazmunida ifodalanishi, normaning institutlar orqali amalga oshirilishi va uning shaxs ongida mustahkamlanishi ko'pincha alohida jarayonlar sifatida o'rganilgan. Shu bois ushbu bosqichlarni "qadriyat – norma – institut – ongli xulq" izchilligida tahlil qilish falsafiy, etik va yuridik natijalarni yagona konseptual modelda birlashtirish imkonini beradi. Kelgusidagi tadqiqotlarda qonun loyihalarini baholashda yuridik-texnik mezonlar bilan bir qatorda inson qadri, adolat, tenglik va mutanosiblikka asoslangan aksiologik ko'rsatkichlarni ishlab chiqish; aholiga huquqiy madaniyatni o'rgatishda qonunni bilishdan tashqari unga ishonch va ongli tarzda rioya etishni ham hisobga olish; kasb etikasini huquqiy vakolat va javobgarlik bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев III.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Ташкент.: «Ўзбекистон», 2021. – 458 бет.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 80 bet.
3. Sher A. Axloqshunoslik: darslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 328 bet.
4. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. – 85 bet.
5. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. – Toshkent: Adolat, 2018. – 528 bet.
6. Qahhorov X. Akademik Ibrohim Mo'minov va uning o'zbek xalqi milliy madaniyati taraqqiyotidagi o'rni: Dis.falsafa fanlari nomzodi: 17.00.08 / Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti. – Samarqand, 1999. – 124 bet.
7. G'apparov E.O., Abdusattorova G.J. Huquq axloqqa zid bo'lganda: ijtimoiy muammolar tahlili // Zamonaviy ta'lim islohotlari va ularning amaliy yechimlari: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2025. – B. 381–386.
8. Javshiyev N.B. Hozirgi kunda huquqni tushunish muammolari: nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2008.
9. Yakubov Sh.U. O'zbekiston huquqiy tizimida huquqiy qadriyat va tamoyillarning shakllanishi: nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2008.
10. Mamatov X.T. Huquqiy madaniyat va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish muammolari: doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2011.
11. Nasriddinova O.T. Huquqiy madaniyat – fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim omil (yoshlar misolida): nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2009.
12. Sodiqova Y.S. Huquqiy ongni shakllantirishda demokratik qadriyatlarining o'rni: nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2010.
13. G'aniyev Sh.A. Axloqqa qarshi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni takomillashtirish: doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2016.
14. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent: Universitet, 1998. – 38-b.
15. Yo'ldoshev X. Axloq o'zgaruvchanmi? // Tafakkur. – 2018. № 2. – 12-21 betlar.